

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



Jizzax Davlat pedagogika universiteti  
rektorining o'rinbosari  
S.M. Sharipov

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI MAKTABGA  
TAYYORLASH FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim  
Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim  
Ta'lim yo'nalishi: 60112700 – Maxsus pedagogika Surdopedagogika  
(qo'shimcha surdotarjimonlik)

Jizzax -2022



Fan/modul kodi 351ENBBMT04	O'quv yili 2022-2023	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 2	
Fan/modul turi Tanlov fan	Ta'im tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 2		
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'im (soat)	Jami yuklama (soat)	
1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlash	Maruza – 10 Amaliy - 20 Jami-30	30	60	
2. <b>I. Fanning mazmuni</b> <b>Fanning asosiy maqsadi</b> - talabalarning defektologiya fanidagi eng murakkab masalalardan biri maxsus muassasalarda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning mohiyati, ahamiyati, tashkil etish yo'llari, tamoyillari bilan tanishtirishdir. <b>Fanning vazifasi</b> –talabalar ta'lim va tarbiya jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlashning oshirish usullarini maxsus adabiyotlarda har tomonlama chuqur o'rganib chiqib, shu masalalarga oid ishlarni amaliyotda kuzatish, tahlili etib, qay holarda ekanligini aniqlash; nazariy va amaliy bilimlarga asoslangan maxsus muassasalarda mazkur ishlarni takomillashtirish, faollashtirish yo'llarini aniqlash, amaliyotga tadbir etilishini ko'rsatish. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlash o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida talabalar quyidagi bilim, malaka amaliy ko'nikmalarni egallashlari lozim: <b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b> <b>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</b> <b>Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni</b> <b>1. Mavzu. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlashning nazariy asoslari (2soat)</b> Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlash muammosi oid Respublikamiz va xorij olimlarining tadqiqot ishlari. Fanning maqsad va vazifalari. Boshqa fanlar bilan aloqasi. <b>2. Mavzu. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga psixologogik tayyorlash tamoyillari, usullari (2soat)</b> Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga psixologogik tayyorlash tamoyillari. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga psixologogik tayyorlash usullari.				

### 3. Mavzu. Bolalarni maktabga tayyorligi komponentlarining tavsifnomasi (2soat)

Bolalarning maktab ta'limiga jismoniy va psixologiy tayyorgarligi. Bolalarning maktab ta'limiga intellektual, nutqiy tayyorgarligi. Bolalarning maktab ta'limiga motivatsion tayyorligining xarakteristikasi. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda dolzarb rivojlanish va yaqin rivojlanish doirasini inobatga olish.

### 4. Mavzu. Bolalarni maktabga tayyorgarligini psixologik-pedagogik diagnostika qilish metodlari (2soat)

Bolalarni maktabga tayyorligini baholash. Bilish jarayonlarining diagnostikasi metodlari. Maktab ta'limiga motivatsion tayyorgarligini o'rganish metodlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik-jismoniy yetukligini baholash usullari.

### 5. Mavzu. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni savod egallash jarayoniga tayyorlash (2soat)

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni savodni egallash jarayoniga tayyorlash mazmuni. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni savodni egallash jarayoniga tayyorlash texnologiyalari. Bolalarning grafik qobiliyatlarini rivojlantirish.

#### III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jinozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Muammoli topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini kuchaytiradi, erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

#### III.1. Amaliy mashg'uloti mavzulari

### 1. Mavzu. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlashning nazariy asoslari. (2 soat)

#### Reja:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlash muammosi oid Respublikamiz va xorij olimlarining tadqiqot ishlarini tahlil qilib tezis tayyorlang.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlash fanining maqsad va vazifalarini "Baliq skeleti" organayzeri orqali keng yoritib bering.
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlash fanining boshqa fanlar bilan aloqasini "Klaster" metodi orqali yoritib bering.
2. Mavzu. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga psixologik tayyorlash tamoyillari, usullari. (2 soat)

#### Reja:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga psixologik tayyorlash tamoyillarini "FSMU texnologiyasi" dan foydalanib yoritib bering.

### 2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga psixologik tayyorlash usullarini "Arra" metodi orqali kichik guruhlarda yoritib bering.

3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga psixologik tayyorlashda o'yin didaktikasidan foydalanish(amaliy tarzda psixologik o'yinlarni tashkili qiling).

### 3. Mavzu. Bolalarni maktabga tayyorligi komponentlarining tavsifnomasi. (2 soat)

#### Reja:

1. Bolalarning maktab ta'limiga jismoniy va psixologik tayyorgarligini "ESSE" texnologiyasi orqali yoritib bering.
2. Bolalarning maktab ta'limiga intellektual, nutqiy tayyorgarligini "B.B.B." texnologiyasidan foydalanib yoritib bering.
3. Bolalarning maktab ta'limiga motivatsion tayyorligining xarakteristikasini tavsiflab bering.
4. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda dolzarb rivojlanish va yaqin rivojlanish doirasini "Ikki qismli kundalik" jadvalda ko'rsatib bering.
4. Mavzu. Bolalarni maktabga tayyorgarligini psixologik-pedagogik diagnostika qilish metodlari. (2 soat)

#### Reja:

1. Bolalarni maktabga tayyorligini baholashda siz qanday testlardan foydalanasiz?
2. Bilish jarayonlarining diagnostikasi metodlarini "Bumerang texnologiyasi"da yoritib bering.
3. O'yin terapiyasidan foydalanish(amaliy tarzda kichik guruhlarda ishlash)
5. Mavzu. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorlash. (2 soat)

#### Reja:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorlashni "Zigzag strategiyasi" metodi orqali yoritib bering.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga psixologik mashg'ulotlar o'tish(1 soatlik mashg'ulot ishlamasini tayyorlash)
3. Mavzu yuzasidan ilmiy maqola tayyorlash.
6. Mavzu. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga nutqiy jihatdan tayyorlash. (2 soat)

#### Reja:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga nutqiy jihatdan tayyorlashni "INSERT strategiyasi" metodi orqali yoritib bering.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga nutqiy jihatdan mashg'ulotlarga o'rgatish "Skrabey texnologiyasi"da yoritib bering.
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning impressiv nutqini "Sinkveyn

texnologiyasi" foydalanib yoritib bering.

**7. Mavzu. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga jismoniy jihatdan tayyorlash. (2 soat)**

**Reja:**

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga jismoniy jihatdan tarbiyalashda "Estafeta" musobaqalarini tashkil etish.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga jismoniy jihatdan tayyorlashda jismoniy daqiqalarning ahamiyati (amaliy tarzda bajarish)
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga jismoniy jihatdan mashg'ulotlarga o'rgatish (mashg'ulot ishlamasini tayyorlash)
8. **Mavzu. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni savod egallash jarayoniga tayyorlash. (2 soat)**

**Reja:**

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni savodni egallash jarayoniga tayyorlash mazmunini "Zanjir texnologiyasi" orqali yoritib bering.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni savodni egallash jarayoniga tayyorlash texnologiyalari.
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning grafik qobiliyatlarini rivojlantirishda "Neyrografika" metodidan foydalanish (amaliy tarzda individual holda ishlantadi)
9. **Mavzu. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlashda xujjatlarni o'rganish va tahlil qilish. (4 soat)**

**Reja:**

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlashda xujjatlarni o'rganish (maktab hujjatlaridan namunalar olib tayyorlash).
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlashda o'yinlardan foydalanish (psixologik va didaktik o'yinlarni tashkil qilish).
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlashda tibbiy kartasini o'rganish va tahlil qilish.

**Muammoli darsni tashkil etishning texnologik xaritasi**

<b>Ish bosqichlari</b>	<b>O'qituvchi faoliyati</b>	<b>Talaba faoliyati</b>
Tayyorlov bosqichi.	Darsni tashkil etish mazmunini, go'yiladigan muammoli vaziyatni hamda ushbu vaziyatning talabalar tomonidan hal qilinish yo'llarini, ta'limiy, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi maqsadni, kutilayotgan natijani va baholash mezonini belgilaydi.	Dars maqsadini va belgilangan muammoli yozib oladilar. Muammoli vaziyat va muammo bayon etilgan materiallar bilan tanishadilar va
Tashkil etish bosqichi, ya'ni muammo go'yish.	Dars maqsadini bayon qiladi, mavzuga oid muammoli vaziyat hosil qiladi (muammoli savollar	muammo bayon etilgan materiallar bilan tanishadilar va

da'vat bosqichi. qo'yadi) o'quvchilarga qo'yilgan muammoli yechishga doir ko'rsatmalar va yo'llarni baholash va ish natijalarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

Mustaqil ishlash jarayoni muammoli yechimini topish. Aniqlash va fikrlash bosqichi. Oo'yilgan o'quvchilarning to'g'ri tushunishlari, ularni muammoga yo'llash maqsadida munozara va aqliy hujum, klaster, kubik, zigzag usullardan foydalanadi va yakka, ikkita hamda guruh bilan ishlashlarni tashkil etadi. Talabalarini faollashtirish maqsadida bir guruhdan ikkinchisiga o'tish yo'llarini amalga oshiradi.

Natijalarni taqdim etish. Diqqat bilan tinglaydi. fikrlarini; aniqlashtiruvchi savollar beradi.

Yakunlash va umumlashtiri Rish bosqichi. Belgilangan muammoli yechish usuli va yo'nalishlarining eng asosiy larini ko'rsatib, ko'pchilik fikriga mos kelganlarini alohida ta'kidlaydi. Talabalarning qanchalik muammolarini yechishdagi intilishlari, fikrlashlari va yechimini topishini inobatga olingan holda baholaydi.

uni hal qilish yo'llarini o'ylaydilar. Talabalar berilgan muammolarini yakka tartibda, ikkita bo'yib yoki guruhlarida bo'lingan holda yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, tahlil qilib, eng qulaylarini topadilar fikrga keladilar. Natijalarni bayon qiladilar va boshqa guruhlarga taklif qilgan natijalar bo'yicha fikr yuritadilar va savollar berish orqali tushunchalarini mustahkamlaydi O'qituvchining xulosalarini tinglaydi, yozib oladi. Guruhlar bir-birlariga va o'z-o'zlariga baho qo'yishlari ham mumkin.

**FSMU texnologiyasi**

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda, baxs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o'quv-seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o'quv rejasida asosida biron bo'yim o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahs-lashtirishga, shu bilan gatorada o'quvchi talabalarni, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishda, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahs-lashtirish madaniyatiga o'rgatadi.

*Maqsad.*

Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z

fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarini bayon etishga yordam beradi.

#### «Aqliy hujum»

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalardan ijodiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni xosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. «Aqliy hujum» metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarini aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Mashg'ulotlar jarayonida «Aqliy hujum» metodidan foydalanishda bir necha qoidalar amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalar quyidagilar:

1. Mashg'ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.
2. Har bir ta'lim oluvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalarning miqdori rag'batlantirilib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi yangi fikr yoki g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi.
3. Har bir ta'lim oluvchi o'zining shaxsiy fikri yoki g'oyalarga asoslanishi hamda ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g'oyalarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikr (g'oyalarning shakllanishiga zamin hozirlaydi).
4. Mashg'ulotlar jarayonida ta'lim oluvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'ymaydi. Agarda ularning fikr (g'oyalari) baholani, boriladigan bo'lsa, ta'lim oluvchilar o'z diqqatlarini, shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qo'llashdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirish ekanligini e'tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Aqliy xujum metodi to'g'ri va ijodiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

#### «Fikriy hujum» metodi

Bu metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonida faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlashdan ozod etish muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish, yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yechishga o'rgatish uchun xizmat qiladi. «Fikriy hujum» metodi. A.F. Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulot (bahs)ning xar bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mulqo ta'qiqlash, har qanday

luqma va hazili-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlang maqsad ta'lim oluvchilarning mashg'ulot (bals) jarayonidagi erkin ishtiroki ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyat foydalanish o'quvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamini kengligiga bog'liq bo'ladi. «Fikriy hujum» metodidan foydalanish chog'it ta'lim oluvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir soat tashkil etilishi mumkin.

#### «Fikrlarning shiddati hujumi» metodi

Mazkur metod Ye.A. Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya. Bush tomonidan qayta ishlangan. «Fikrlarning shiddati hujumi» metodining mohiyati jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir ta'lim oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashishi hamda ta'lim oluvchilarda ma'lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir.

Ushbu metoddan foydalanishga asoslangan mashg'ulot bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ular quyidagilardir:

- 1-bosqich. Ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ta'lim oluvchilarni o'zida birlitirgan hamda son jihatdan teng bo'lgan kichik guruhlarni shakllantirish.
- 2-bosqich. Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarini aniqlash.
- 3-bosqich. Guruhlar tomonidan muayyan g'oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlarning hal etilishi).
- 4-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini muhokama etish, ularni to'g'ri hal etilganligiga ko'ra turkumlarga ajratish.
- 5-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya'ni ularni to'g'riлик darajasi, yechimini topish uchun sarflanган vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayon etilishi kabi mezonlar asosida baholash.
- 6-bosqich. Dastlabki bosqichlarda topshiriqlar yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish.

#### Arra metodi

(E. Aronson, 1978)

Pedagogik amaliyotda mazkur metodda kichik guruhlar 6-8 ta talabdan tashkil topadi. Dars davomida o'rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan talabalar bajarlilishi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari tuziladi. Har bir talabalar guruhli mazkur topshiriqlarning bitisini bajaradi va shu qism bo'yicha «mutaxassis»ga aylanadi. So'ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruhlarda har bir qism (blok yoki moduli) «mutaxassis» bo'lishi shart, mazkur «mutaxassis»lar o'zlarini egallagan bilimlarni xuddi «arra» tishlari ketma-ket kelgandek navbat bilan o'riqoqlarga bayon qilishadi. Mazkur guruhlarda o'quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi.

1986 yili R.Slavın «arra» metodini qisman o'zgartirib «arra-2» metodini yaratadi. Mazkur metodga ko'ra kichik guruh 4-5 talabalaridan tashkil topadi.

Barcha guruh a'zolari o'quv materialini yuzasidan tuzilgan yegona topshiriq ustida ishlaydi. Guruh ichida talabalar topshiriqlarni qismlarga ajratib, bo'lib oladilar. Har bir talaba o'ziga tegishli qismini puxta o'zlashtirib «mutaxassis»ga aylanadi. Dars oxirida har bir kichik guruhdagi «mutaxassis»lar uchrashuvi qayta tashkili etilgan guruhlarda o'tkaziladi.

Talabalar bilimi test savollari yordamida individual tarzda o'iqazilib nazorat qilinadi va baholanadi. Guruh a'zolarining ballari jamlanadi, eng yuqori ball to'plagan guruh g'olib sanaladi.

#### «Bilaman. Bilib oldim. Bilishni xohlayman»

Talabalar beshta guruhga bo'linadilar, guruhlarni nomlanadi. Yozuv taxtasi uch qismga ajratiladi. Birinchi bandning yuqori qismiga «Bilaman», ikkinchi bandning yuqori qismiga «Bilib oldim», uchinchi bandning yuqori qismiga esa «Bilishni xohlayman»degan so'zlar yoziladi.

So'ngra o'qituvchi talabalardan mavzu yuqasidan qanday ma'lumotlarga ega ekanliklarini so'raydi va bildirilgan fikrlarni «Bilaman»nomi bandga yozib qo'yadi.

Ushbu xarakat guruhlarni tomonidan fikrlar to'la bayon etilganiga qadar davom etadi. Mazkur jarayonda guruhlarning barcha a'zolari faol ishtirok etishlariga ahamiyat berish zarur. Talabalar tomonidan bildirilyotgan noto'g'ri fikrlar ham inkor etilmasligi zarur (zero bunday xarakat o'quvchilarning faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi).

Keyingi bosqichda talabalarga mavzuga oid matnlar tartiblab beriladi. Ushbu matn mavzu bo'yicha eng asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Talabalar matn bilan tanishib chiqqandan so'ng fikr yuritishlari hamda mavzuga oid yana qanday ma'lumotlarni o'zlashtirganliklarini aniqlashlari lozim. Talabalar o'z xulosalari asosida fikrlarini bayon etadilar, ushbu fikrlar «Bilib oldim»nomi ustunga yozib boriladi.

So'ngi bosqichda o'qituvchi talabalardan yangi mavzu bo'yicha qanday ma'lumotlarni o'zlashtirish istagida ekanliklarini so'raydi va o'quvchilarni yana o'ylashga davat etadi. Guruhlardan navbati bilan fikr so'raladi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlar «Bilishni xohlayman»nomi ustunga yozib boriladi.

#### «Bumerang» texnologiyasi

Bu texnologiya talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin xolda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi-talabalarni baholay olishga qaratilgan.

*Maqсад:* trening davomida tinglovchilarga tartiblangan materiallarni ular tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda o'zaro suhbat munozara orqali, turli savollar, targatma materiallar va undagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganini nazorat qilish. Trening davomida talabalar tomonidan baholab ballarni egallashga imkoniyat yaratish.

#### «Zigzag» strategiyasi metodi

Talabalar 7ta guruhga bo'linadilar va guruh nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar

mazmunini bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlarga topshiriladi. Talabalar matnlarini diqqat bilan o'rganadilar va gapirib beradilar. Vaqtini tejasli maqsadida guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi mumkin. Barcha guruhlarning o'quvchilari o'zlariga topshirilgan matn mazmunini xususida so'zlab berganlaridan so'ng, matnlar guruhlararo almashirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. Shu tarzda barcha matnlar mazmunini guruhlarni tomonidan o'rganib chiqilgach talabalar o'tilgan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligini aniqlaydilar, yuzaga kelgan g'oyalar asosida mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi. So'ngra o'zlashtirilgan bilimlar asosida talabalarning o'zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

#### «Insert» strategiyasi metodi

Talabalar guruhlarga bo'linadilar, guruhlarni nomlanadi. O'qituvchi har bir guruh talabalaridan mavzuga oid ikkita dan fikr bildirishlarini so'raydi. Guruhlar navbati bilan (ushbu jarayonda guruhning barcha a'zolari faol ishtirok etishlarini ta'minlash maqsadiga muvofiq) fikr bildiradilar. Bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi. Faoliyat yakunlangach, o'qituvchi mavzular mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi matn o'quvchilarga taqdim etiladi. So'ngra shunday topshiriq beriladi:

- matn bilan tanishib chiqing;
- matnning har bir qatoriga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:  
**Z**-matnda guruhda tomonidan bildirilgan fikr o'z aksini topgan bo'lsa;  
**S**-matnda guruhlar tomonidan bildirilmagan fikr yuritilgan bo'lsa;  
**D**-matnda bir biriga zid fikrlar mavjud bo'lsa;
- matn bilan tanishish jarayonida tushunmovchiliklarni yuzaga kelsa.

So'ngra guruh a'zolari shaxsiy qarashlarini o'zaro o'rtoglashadilar, guruh bo'yicha belgilar soni umimlashiriladi. Liderlar vositasida har bir belgining miqdori bayon etiladi va izohlanadi. O'qituvchi guruhlarni tomonidan qayd etilgan sonlarni ularning nomlari yozilgan ustunga yozib boradi.

O'qituvchi har bir guruh lideri fikrini tugatgach, yuzaga kelgan qarama qarshilik va tushunmovchiliklarni o'quvchilar to'g'ri xal etishlariga va tushunib olishlariga yordam beradi.

Shundan so'ng guruhlarni darslikda berilgan matn bilan tanishib chiqib, asosiy tushunchalarni ajratadilar ular o'rnatilgan mantiqiy munosabatlarni ochib berishga harakat qiladilar (modellashdiradilar). Guruhlarni tomonidan ilgari surilgan fikrlar umimlashirilib, liderlar tomonidan sinf jamoasida yetkaziladi.

#### «Klaster» metodi

Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy munamno (mavzu) lar xususida erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bema'lol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rnatiladigan aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmalarni aniqlashni talab etadi. «Klaster» metodi aniq obyektga yo'naltirilgan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash

tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chiqur hamda puxta o'zlashtirilganiga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Guruh asosida tashkili etilayotgan mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida nomoyon bo'ladi. Bu esa guruhning har bir a'zosi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtrish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.

«Klaster» metodini o'ikazish texnologiyasi:

1-bosqich. Nimaniki o'ylagan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing. Fikringizni sifati to'g'risida o'ylab o'timay, ularni shunchaki yozib boring.

2-bosqich. Yozuvingizning ortografyasi yoki boshqa jihatlarga e'tibor bermang.

3-bosqich. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to'xtanang. Agar ma'lum muddat biror-bir g'oyani o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chizib boshlang. Bu harakati yangi g'oyani uyg'unlashtrishga qadar davom ettiring.

4-bosqich. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'prog yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling. Foyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang.

#### «Skarabej» texnologiyasi

«Skarabej» interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiqiy xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muommoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi. «Skarabej» texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi:

boshida-o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida («aqliy hujum»);

mavzuni o'rganish jarayonida-uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarni ko'rsatish;

oxirida-olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida. «Skarabej» texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlarini inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'ikazish imkoniyatlariga ega. Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifati bilan idrok qilishni yengillashtruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

«Skarabej» alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanilishi mumkin.

#### «Ikki qismli kundalik»

Ikki qismli kundalik pedagogik uslub bo'lib, yozma nutqni rivojlantiradi. Bu uslub o'qib chiqilgan mavzu bo'yicha tushunchalarni shaxsiy tajriba bilan bog'lashga imkon beradi.

Maqsadi: o'rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otish, yozma nutqni rivojlantirish.

Amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich. Talabalar oldindan tayyorlab qo'yilgan matn o'qish uchun taklif etiladi.

2-bosqich. Hamma matn bilan tanishganiga ishonch xosil qilib, dafterni vertikal chiziq bilan ikkiga bo'lish so'raladi.

3-bosqich. Talabalarga, dafterni chap tomoniga muallif sitatalar (g'oyalar), fikrlarini yozganlarini (yoki yozmaganlarini) yozishlari aytiladi.

4-bosqich. O'ng tomonga talabalar mazkur sitataga berilgan o'zini izohini yozadi, ya'ni o'qilgan matn haqidagi tushunchasini umumlashtirib beradi.

5-bosqich. Topshtirgini shu qismi tugagandan keyin talabalarga (o'z xohishiga ko'ra) bitradan sitatalarni va ularga yozilgan izohni o'qish taklif etiladi. Sitata va ularning izohi o'qilayotganda savol berish yoki mazkur sitataga o'z izohini berishga ruxsat etiladi.

6-bosqich. Talabalar sherik (uchliklar yoki kichik guruhlari) bo'lib ham ishlashlari mumkin.

#### Yenn diagrammasi

Yenn diagramma-grafik ko'rinishda bo'lib, olingan natijalarni umumlashtirib, ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetni (ko'rinish, fakt, tushuncha) tahlil qilish va o'rganishda qo'llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylanani kesishmasidan hosil bo'ladi.

Maqsadi: ikki va undan ortiq predmet va tushunchalarni taqqoslashda, turli va umumiy tomonlarini aniqlashda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish. Amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich. Talabalar (sherkarlari bilan) ikki doirani to'ldiradilar, har bir doiraga ikki tushuncha (predmet)ni e'tibori tomonlari sanab o'tiladi.

2-bosqich. Talabalarni kichik guruhlarga (4-5 kishidan iborat) birlashtirib, diagrammalarni taqqoslaytriv va to'ldiradilar.

3-bosqich. Kichik guruh talabalariga bu tushunchalarning (predmet, ko'rinishlarning) umumiy xossalarni aniqlashni taklif etamiz.

4-bosqich. Biron bir guruh vakili har bir tushunchaning o'ziga xos tomonlarini o'qiydi. Boshqalar zarurat bo'lganda uni javobni to'ldiradilar.

5-bosqich. Boshqa guruh vakillari ikki tushunchani birlashtiruvchi (umumiy) xususiyatlarini o'qiydi. Boshqalar zarurat paydo bo'lganda bu javoblarni to'ldiradilar.

#### «Sinkveyn»

Sinkveyn-berilgan mavzu bo'yicha bir necha so'z orqali o'quv matnini bayon qilish mumkin bo'lgan usul. Bu o'ziga xos o'tilayotgan mavzu bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan besh misradan iborat qo'fiyasiz she'r.

<p>Maqсад: mavzuni mukammal o'rganishga erishish</p> <p>Amaღsa oshirish bosqichlari</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>O'quvchilarni sinkveyn tuzish qoidalarini bilan tanishtiramiz.</li> <li>Shu qoidalarga asoslanib, ma'lum bir mavzuda sinkveyn tuzishni taklif etamiz.</li> <li>Hamma sinkveyn tuzganiga ishonch hosil qilgandan so'ng, xohishga ko'ra o'qiladi.</li> </ol> <p>Sinkveyn tuzish qoidalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>birinchi qatorda bir so'z bilan mavzu belgilanadi (ot so'z turkumidan)</li> <li>ikkinchi qatorda mavzu ikki so'z bilan ta'riflanadi (sifat)</li> <li>uchinchi qator-shu mavzu ichida harakanni uch so'z bilan ta'riflash (fe'l, ravishdosh)</li> <li>to'rtinchi qator-mavzuga munosabatni bildiruvchi to'rt so'zli (turli so'z turkumlaridan) misra xosil qilish</li> <li>besinchi qator-bir so'z yoritlayotgan mavzuni sinonimi tanlanadi.</li> </ul> <p><b>«Zinama-zina» o'yini</b></p> <p>«Zinama-zina» o'yini o'tkazish uchun o'qituvchi o'quvchilarga rangli kartochkalar yordamida teng sonli kichik guruhlarga ajratadi. Har bir kichik guruh uchun sardorlar tayyorlanadi. Sardorlar o'yin savollarini olib, o'quvchilarga birma-bir berib boradi. Agar guruh 6 ta talabardan tashkili topgan bo'lsa, xar bir talaba 5 ta savolga javob berishi lozim. Savollar yonida to'g'ri javob yozilganligi sababli guruh sardorlari talabalarining javoblarini nozorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Talabalar har bir to'g'ri javob uchun bir ballan to'plab jami 5 ballgacha ball to'plashi mumkin. Shundan so'ng, o'qituvchi talabalarining to'plagan balliga qarab qayta guruhlavdi. Har bir guruh o'zlarining iqtidoriga qarab turli xildagi topshiriqlarni beradi. Talabalar bu topshiriqlarni bajarib bo'lgandan so'ng, o'zaro savol javob o'tkazadilar har bir guruh o'z topshiriqlarini ko'rganmali qurollar asosida bayon etadi. Topshiriqni mukammal bajaragan kichik guruhlarga rag'batlantiriladi va g'oliblar aniqlanadi.</p> <p><b>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.</b></p> <p>Mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsad va vazifalar - bu talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Mustaqil ta'lim amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.</p> <p><b>IV.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlashning nazariy asoslari</li> <li>Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga psixologik tayyorlash tamoyillari, usullari</li> <li>Bolalarni maktabga tayyorligi komponentlarining tavsifnomasi</li> <li>Bolalarni maktabga tayyorgarligini psixologik-pedagogik diagnostika qilish</li> </ol>	<p>metodlari</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>O'yin faoliyatini rivojlantirish metodikasi</li> <li>Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorlash</li> <li>Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga nutqiy jihatdan tayyorlash</li> <li>Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga jismoniy jihatdan tayyorlash</li> <li>Bolalarni maktabga tayyorligini baholash.</li> <li>Bilish jarayonlarining diagnostikasi metodlari.</li> <li>Maktab ta'limiga motivatsion tayyorgarligini o'rganish metodlari.</li> <li>Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik-jifimoiy yetukligini baholash usullari.</li> <li>Nutq komponentlarini rivojlantirish texnologiyalari.</li> <li>Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga nutqiy jihatdan tayyorlashda o'yin faoliyatidan foydalanish.</li> <li>Bilish motivlarini shakllantirish yo'llari.</li> </ol> <p><b>IV.2. Mustaqil ta'limni o'zlashtirish tartibi.</b></p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <p><b>3. VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlash o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida talabalar quyidagi bilim, malaka amaliy ko'nikmalarni egallashlari lozim:</li> <li>Maxsus muassasalarda korreksion-tarbiyaviy ishlarga bag'ishlangan adabiyotlarni o'rganish;</li> <li>Tahlili etilayotgan mavzularni maxsus muassasalardagi holatini aniqlash, o'rganish, tahlil etish;</li> <li>Korreksion-tarbiyaviy ishlarga oid dars, tarbiyaviy soat, darsdan tashqari mashg'ulotlar, sinfdan tashqari ishlarning reja matnini, senariylarni tuzish, tahlil qilish;</li> <li>Maxsus seminar muammosiga doir bir mavzu bo'yicha ma'ruza va referat tayyorlash;</li> <li>Talabalar tomonidan tayyorlangan ilmiy ma'ruzalarga opponenitlik qilish malakalarini shakllantirish.</li> <li>Bilim, ko'nikma, malaka bo'lishi kerak.</li> </ul>
---	---

<p>4. VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadlar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
<p>5. VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p> <p><b>Joriy nazorat.</b> Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juflik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p><b>Oraliq nazoratlar.</b> Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.</p> <p>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.</p> <p><b>Yakuniy nazorat</b></p> <p>Yakuniy nazorat yozma shaklida o'tkaziladi. Talabning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.</p>
<p>6. VIII. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</p> <p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ayupova M.Yu. Logopediya. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007.</li> <li>2. M.U.Xamidova. Maxsus pedagogika (Mutaxassislikka kirish). -T.: Fan va texnologiyalari, 2018</li> <li>3. F.Fatxieva 2005 y. O'zbekiston karlar imo-ishora nutqi. 600 bet.</li> <li>4. Surdopedagogika. U.Fayzieva. D.Nazarova, F.Qodirova "Sano-standard" Toshkent 2012</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mo'minova L., Amirsaidova SH. va boshqalar. Maxsus psixologiya. – T.:</li> </ol>

O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013.

2. Alimxojayeva F.J. Kar bolalar eshitish qobiliyatini rivojlantirishda didaktik materiallardan foydalanish. P.f.n. diss..avtorf. -M., 1992.
3. Mannarajabova Z.N Surdopedagogika-T..2017.
4. Fayzieva U., Nazarova D.A., Qodirova F. Surdopedagogika-T.:Sanosstandart, 2012.
5. Nazarova D. A. Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish Ped.fan.nomz.diss.avtorf...-T.:TDPU.2009.
6. Nazarova D. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ta'limini takomil lashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy yechimlari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya material lari. - T., 2007. - V. 60-63.
7. Nazarova D. Eshitishda muammosi boigan bolalarni oilada maktab ta'limiga tayyorlash. Ota-onalar uchun metodik qo'llanma. -T.: A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2007 -
8. Gukina N. I. Psixologicheskaya gotovnost k shkole. — M., 1993.
9. Korreksionno-vospitatelnaya rabota v podgotovitelnyx gruppax spetsialnyx doskolnyx uchrejdeniy dlya detey s narusheniyami sluxa i intellekta / Pod red. L. P. Noskovoy. — M., 1990.
10. Kravsova Ye. Ye. Psixologicheskkiye problemy gotovnosti detey k obucheniyu v shkole. — M., 1991.
11. Parxolina Ye. V., Rechinskaya Ye. G. Izucheniyeye gotovnosti detey s narusheniyami sluxa k postupleniyu v shkolu // Uchitel-defektolog: Sovremennyye problemy podgotovki i sovershenstvovaniya raboty // Mejnuzovskiy sbornik nauchnyx trudov MGPI im. V. I. Lenina. — 1990.
12. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Eklin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq/ Sh.M. Mirziyoyev. — Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
13. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tangdidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.
14. Mamlakatimizni 2016 yilda jifimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. — Toshkent : O'zbekiston, 2017. – 104 b.
14. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilimganing 24 yilligiga

<p>bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.</p> <p>15. Mirziyoyev Shavkat Miromovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan biga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qorag'apog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.</p> <p>16. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y. 6-son, 70-modda)</p> <p style="text-align: center;"><b>Internet saytlari:</b></p> <p>11. <a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a>  12. <a href="http://www.edu.uz">www.edu.uz</a>  13. <a href="http://www.tdpu.uz">www.tdpu.uz</a>  14. <a href="http://www.pedagog.uz">www.pedagog.uz</a>  15. <a href="http://www.defektolog.uz">www.defektolog.uz</a></p>
<p>7. Tanlov fanning o'quv dasturi Jizzax davlat pedagogika universitet Kengashining 202__ yil "___" dagi ___-sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan.</p>
<p><b>8. Fan/modul uchun mas'ullar:</b>  M.X.Yunusov - JDPU Maxsus pedagogika kafedrasini o'qituvchisi</p>
<p><b>9. Taqrizchilar:</b>  S.Xudoyorov – Jizzax viloyati Zaif eshituvchi bolalar maxsus maktab internati direktori  M.Tilakova – Jizzax viloyat XXQT va MO instituti kafedra mudiri p.f.f.d. (PhD)</p>